

TALABALARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA XARAKTER AKSENTUATSIYASINING TUTGAN O'RNI

University of business and science

Psixologiya yo'nalishi 23-33 guruh talabasi

Tolanov Xojamqul Maxammadjon O'g'li

Ilmiy raxbar: Jurayev Xaydarjon Odilboyevich

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2585-8439>

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning kasbiy faoliyatida sog'lom turmush tarzini uzluksiz rivojlantirish, barkamol avlod g'oyasi asosi, ta'lim-tarbiya ishlari, shakllari usul va vositalarini jahon andozasi talablariga mos holda rivojlantirish; ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash; talabalarda sog'lom turmush-tarzining shakllantirish va ularning ma'naviy kamolotida mahalla, oila hamkorligi tizimini yaratish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'z: uzluksiz rivojlantirish, barkamol avlod, ma'naviy kamolotida mahalla, oila hamkorligi, jahon andozasi, sog'lom turmush

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы непрерывного развития здорового образа жизни в профессиональной деятельности учащихся, основы идеи гармоничного поколения, выработка методов и средств учебно-воспитательной работы, форм в соответствии с требованиями мирового образца; воспитание духовно и физически здорового поколения; формирование у учащихся здорового образа жизни и создание системы сотрудничества соседства, семьи в их духовном созревании.

Ключевое слово: непрерывное развитие, гармоничное поколение, духовное совершенствование соседства, семейное сотрудничество, мировой шаблон, здоровый образ жизни

Annotation. This article discusses the continuous development of a healthy lifestyle in the professional activities of students, the foundation of the idea of a harmonious generation, the development of methods and means of educational work,

forms in accordance with the requirements of the world template; the upbringing of a spiritually and physically healthy generation; the formation of a healthy lifestyle in students and the creation

Keyword: continuous development, harmonious generation, neighborhood in spiritual maturation, family cooperation, world template, healthy living

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash nafaqat professional bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, balki ularning shaxsiy-psixologik rivojlanishini ta'minlashni ham talab etadi. Ushbu jarayonda shaxsning individual xususiyatlari, xususan, xarakter aksentuatsiyasi muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Xarakter aksentuatsiyasi talabaning kasbiy motivatsiyasi, stressga chidamliligi, muloqot uslubi va professional moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xarakter aksentuatsiyasi shaxs xarakterining ayrim jihatlari me'yor doirasida, biroq kuchaygan holda namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Talabalarda aksentuatsiyaning mavjudligi ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi, mas'uliyatni his etish va kasbiy muhitga moslashuvini belgilaydi. Dastlab innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slatenin, A.I.Sherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan. So'nggi yillarda keskin o'zgargan hayot sharoitlari va ta'lim tizimi, uning maqsadi, mazmuni, turlari o'rtasidagi o'zgarishlar yosh avlodning ma'naviy tarbiyasiga yangicha qarash, uni bugungi kun nuqtai nazaridan o'rganish, baholash va unda xalqimizning boy madaniy merosidan maqsadli foydalanishni talab etmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish esa: ta'lim-tarbiya ishlari, shakllari usul va vositalarini jahon andozasi talablariga mos holda rivojlantirish;

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni kasbiy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, kasbiy identifikatsiyani shakllantirish va shaxsiy kompetensiyalarni mustahkamlashni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonda talabaning o'ziga bo'lgan ishonchi, kasbiy motivatsiyasi va emotsional barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Xarakter aksentuatsiyasi ushbu komponentlarning shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Chunki, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish va unga rioya etish, sog'lom oilani shakllantirish, farzand ko'rish va uni tarbiyalash shaxs ma'naviy madaniyatining bir ko'rinishi hisoblanadi. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Shuningdek, inson xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar, nosabatlar to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar oila sharoitida, ota-onaning ibrat-namunasidan shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oila tarbiyasi shaxs ma'naviyatini shakllanishidagi asosiy vosita ekan, bu o'rinda bola tarbiyasida sog'lom nasl masalasi ham muhim rol o'ynashini inkor etib bo'lmaydi. Shu ma'noda yoshlarni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ular ongida "Sog'lom turmush tarzi – sog'lom oila, sog'lom oila bu sog'lom farzand, baxtli kelajakdir" tasavvurini shakllantirish, bo'lajak ota-onalar ya'ni talaba-yoshlardagi reproduktiv madaniyatni shakllantirish bu yo'nalishdagi islohotlarning asosiy vazifalaridan sanaladi. Sog'lom avlodni shakllantirish jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish negizida amalga oshiriladi. Buning uchun esa jamiyatning har bir a'zosi sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishi, salomatlikning bir ko'rinishi sifatida qabul qilish lozim.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson sog'ligining 20-25% atrof-muhit ta'sirida, 20% nasliy omillar asosida, qolgan 55% har-xil sabablar, o'z sog'ligi turmush tarziga bo'lgan e'tibori ta'sirida shakllanar ekan. Sihat-salomatlik muammolari bo'yicha keltirilgan mazkur dalillar shaxsning sog'lom turmush tarzi borasidagi tasavvurlari, savodxonlik darajasi shaxsning o'sib, voyaga yetishida asosiy omil ekanligini

isbotlaydi. Tibbiy ensiklopediyalarda sihat-salomatlik tushunchasi 4 ta asosiy yo'nalishga bo'lib izohlanadi va o'rganiladi.

Xolati bo'yicha sog'liq. Bu yo'nalish organizmning umumiy holatini belgilovchi, uning biologik o'sishi va rivojlanish jarayonini belgilaydi.

Harakat bo'yicha sog'liq. Bu yo'nalish inson organizmi har xil a'zolarining harakat vazifalarini ta'minlash, o'sish darajasini belgilaydi.

Ruhiy sog'liq. Bu atama fanga 1979 yilda kiritilgan bo'lib, inson ruhiy xolatini aniqlaydi. Shaxsning ruhiy holati ya'ni quvonch-tashvishlari, turli o'zgarishlar, voqealarning sihat-salomatlikka bo'lganda'sirini tabiiy va ijtimoiy imkoniyatlaridan kelib chiqib o'rganadi.

Ma'naviy sog'liq. Bu shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi, o'z xatti-harakatlari, ichki kechinmalarini tartibga solish, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik va ulardan hayot tarzini yo'lga qo'yishda foydalanish, og'ir hayotiy vaziyatlarda oqilona yo'l tanlash ko'nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi. Ba'zi bir rus olimlari masalan, T.F.Akbashev, B.A.Klassov insonning ma'naviy salomatligini uch omil birligida ya'ni ijtimoiy, intellektual va reproduktiv sog'liq bilan to'ldiradilar.

Ularning fikricha, intellektual sog'liq fikrlash, axborotlarni qabul qilish va uni yetkazishda o'z aksini topsa, ijtimoiy sog'liq, insonni ijtimoiy faolligida jamiyatda o'z o'rnini topishi, kasbiy kamolotida o'z ifodasini topadi. Reproductiv sog'liq esa otalar bilan bo'lgan aloqada, oilaviy munosabatlar, jinsiy madaniyat, farzand ko'rish va uni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan holatlarda namoyon bo'ladi.

Salomatlik, sog'lom turmush tarzi muammosi bo'yicha shug'ullanuvchi tadqiqotchilardan R.Ayzman ham shaxs salomatligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganar ekan, uning quyidagi darajalarini ajratib ko'rsatadi:

jismoniy, ya'ni genetik, biokimyoviy, metabolik, morfologik, funksional;

ruhiy, ya'ni hissiy, aqliy, shaxsiy;

ijtimoiy-ma'naviy yoki ahloqiy.

Shu o'rinda «Turmush tarzi» tushunchasining mohiyatini pedagogik talqin qilishni joiz deb topdik:

Turmush kishilar hayotining kundalik amal qilish jarayonidir. Kishilar o'rtasidagi munosabatlar, turli an'ana va urf-odatlar, mehnatga hamda jamiyatga, yashash qoidalariga munosabat turmushda o'z ifodasini topadi. Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida turmush tarzi, turmush madaniyati rivojlanib, o'zgarib boradi. Xarakter aksentuatsiyasi tiplari va kasbiy tayyorgarlik psixologik jixatlari quydagi tiplarda dominantlik kuzatilishi aniqlanga:

Gipertim tipdagi talabalar yuqori faollik, tashabbuskorlik va ijtimoiy moslashuvchanlik bilan ajralib turadi. Ular jamoa bilan ishlash va liderlik talab etiladigan kasblarda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin, biroq mas'uliyat va intizomni mustahkamlash zarur.

Tsikloid tipdagi talabalar kayfiyat o'zgarishiga bog'liq holda o'qish va amaliyotda barqarorlikni yo'qotishi mumkin. Kasbiy tayyorgarlikda individual yondashuv va qo'llab-quvvatlash muhimdir.

Tashvishli (anksioz) tip vakillari kasbiy baholash va nazorat jarayonlariga yuqori xavotir bilan munosabatda bo'ladilar. Ular uchun psixologik tayyorgarlik va stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Emotiv tipdagi talabalar empatiya va mas'uliyat bilan ajralib turadi. Ular inson bilan ishlashga yo'naltirilgan kasblarda (pedagogika, psixologiya, tibbiyot) yuqori kasbiy moslashuvga ega bo'lishlari mumkin.

Demonstrativ (isteroid) tipdagi talabalar o'zini namoyon qilish va tan olinishi ehtiyojiga ega. To'g'ri yo'naltirilganda, bu xususiyatlar ijodiy va kommunikativ kasblarda ijobiy natija beradi.

Shizoid tipdagi talabalar mustaqil ishlashga moyil bo'lib, tahliliy va texnik kasblarda yuqori samaradorlik ko'rsatishi mumkin, biroq jamoaviy ko'nikmalarni rivojlantirish talab etiladi.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida xarakter aksentuatsiyasini inobatga olmaslik talabalarda kasbiy stress, ishonchsizlik va motivatsiya pasayishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, aksentuatsiya turlariga mos psixologik-pedagogik yondashuv kasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, turmush tarzida har bir xalqning uzoq asrlar davomida yaratgan ma'naviy va moddiy boyliklari, yon-atrof, muhit va kelajak haqida tasavvurlari, milliy-etnik belgilari, mintaliteti, urf-odatlar, an'analari hamda yashash usuli to'la aks etadi. Shu nuqtai nazardan turmush tarzi xalq, millat, etnosning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan hayot kechirish usullarining majmuidir. Turmush tarzi inson hayoti va insoniyat mavjudligining, borlig'ining asosiy belgisi sifatida qadim kishilik jamiyati bilan birga mavjudlik kasb etgan. Sog'lom turmush tarziga ega bo'lish har bir xalq, har bir millat, har bir inson, har bir shaxsning ongi, uning tafakkuri va dunyoqarashi, yashash tarzi bilan uzviy va bevosita bog'liq psixologik-axloqiy va ijtimoiy-tarixiy zarur xususiyat hisoblanadi. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda xarakter aksentuatsiyasi muhim psixologik omil hisoblanadi. Aksentuatsiya turlarini aniqlash va ularga mos rivojlantiruvchi dasturlarni joriy etish talabalarining kasbiy muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Tolstix V.I. Obraz jizni. Ponyatie. Realnost. Problemy. –M.: Mysl, 1975
2. Xudoybergenova P.T. Milliy turmush tarzi, uning mustaqillik yillarida taraqqiyot xususiyatlari: Dis.... fal.fan.nomz. - T., 2005
3. Taskarayevna, N. Z., Yuldibayevna, B. G., Niyazova, N., Shehzadi, I., & Turayev, S. (2026). Pedagogical Transformations: Agentic AI as a Co-Teacher and Learning Partner. In *Multidisciplinary Perspectives on Agentic AI in Educational Systems* (pp. 63-86). IGI Global Scientific Publishing.
4. Gulmira, B. (2019). Semantic and psychological relationship of Envy and Jealousy. In *Bridge to science: research works* (pp. 174-176).
5. Yuldibayevna, B. G. (2020). Masofaviy ta'limdagi talaba shaxsini tarbiyalashda psixologik tavsiyalar. *Science and Education*, 1(1), 454-457.
6. Odilboyevich, J. X. (2025). BOSHLANG'ICH SINIF O 'QUVCHILARINING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TA'LIM TARBIYANING

- АНАМИЯТИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 84(1), 338-342.
7. Odilboyevich, J. X. (2025). O'SMIRLIK YOSHIDA YUZAGA KELADIGAN REFLEKSIV KOMPETENTSIYANI PSIXOLOGIK VA PEDAGAGIK XUSUSIYATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 84(1), 320-330.
8. Xusanboy, X. G., & Odilboyevich, J. X. (2025). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O 'QUVCHILARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARINING PERSEPTIV JIXATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 84(1), 331-337.
9. Odilboyevich, J. X. (2025). O 'SMIRLARDA XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA UNING BOSHQA XULQ-ATVOR SHAKILANISHGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 59(2), 338-347.
10. Odilboyevich, J. X. (2025). SHAXS XARAKTERIGA TASHXIZ QO 'YISHDA PROFAYLING METODINING PSIXOLOGIK JIXATLARI. *Advances in Science and Education*, 1(03), 77-79.
11. Jurayev, X. (2025). O 'smirlarda xarakter aksentuatsiyasining o 'ziga bo 'lgan ishonch rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(12).